



NATIONAL HOLIDAYS IN UZBEKISTAN AS A MEANS OF EXPRESSING AN EXAMPLE OF A PROSPEROUS LIFE OF THE PEOPLE

Rustamov Zuxriddin ¹

¹ Uzbek State Institute of Arts and Culture,
«Master of Pop and Public Performance Directing» specificity
<https://doi.org/10.5281/zenodo.4766498>

ARTICLE INFO

Received: 1st May 2021
Accepted: 5th May 2021
Online: 10th May 2021

KEY WORDS

National holidays, directing, drama, spiritual and aesthetic needs.

ABSTRACT

This article provides information on the basics of organizing, directing and dramaturgy of public holidays.

O‘ZBEKISTONDA O‘TKAZILADIGAN UMUMXALQ BAYRAMLARI – XALQ FAROVON HAYOTINING NAMUNASINI IFODALASH VOSITASI SIFATIDA

Rustamov Zuxriddin ¹

¹ O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, “Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi” mutaxassisligi magistri

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 1-May 2021
Ma’qullandi: 5-May 2021
Chop etildi: 10-May 2021

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umumxalq bayramlarini tashkil etish asoslari, rejissura va dramaturgiyasi haqida ma’lumotlar berilgan.

KALIT SO‘ZLAR

Umuxalq bayramlari, rejissura, dramaturgiya, ma’naviy va estetik ehtiyoj.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, insonlarning ma’naviyatini oshirish, ularga ma’naviy ozuqa berish, yaxshi, farovon turmush sharoitlarini yaxshilash, o‘z yurti, oilasi, kasbini sevish, ularni ilmi, bilim, ma’rifatli, komil inson qilish va boshqa ezgu maqsadlarga qaratilgan juda ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan qator-qator dasturlarning asosiy mohiyati ham ana shunday ulkan maqsadlarga yo‘naltirilgan.

Mamlakatimizda bo‘layotgan katta o‘zgarishlar va muvaffaqiyatlarni bayramlarimiz misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Madaniy tadbirlarning oliy shakllaridan bir bo‘lgan bayramlar yurtimiz chiroyi, go‘zalligi, maftunkorligini jahonga tarannum etmoqda. Ayniqsa, mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan so‘ng bayramlarni o‘tkazish, tashkil etish va boshqarishga bo‘lgan e’tibor va talab kuchaydi. Chunki bayramlar yurtimiz, millatimiz ko‘zgu-sidir.



“Bayramlar kishilar hayotidagi eng quvonchli, hissiyotli damlar, xushkayfiyat chog‘lar, birdamlik, mehr-oqibat, kelajakka ishonch tuyg‘ularini o‘zida qamrab olgan buyuk bir ijodiy va tashkiliy jarayondir. Bayramlar o‘z-o‘zidan bayram shakliga kelmaydi, uni tashkil etish kerak. Kishilar imkoniyatini hisobga olib, zamon talablaridan kelib chiqib, milliylik, urf-odat, an‘analarga sodiq qolgan holda, mavzu va g‘oya uyg‘unligida tashkil etilgan bayram va tomoshalar yuqori darajada o‘tkazilgan tadbirlardan hisoblanadi. Chunki insonlar bayramlarga madaniy hordiq chiqarish uchun, bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish uchun, estetik zavqlanish, kayfiyatini ko‘tarish va boshqa ijobiy hislatlarni jo qilish uchun keladi. Bu esa uning ertangi kundagi amalga oshiradigan ijobiy ishlariga qiziqishini yanada orttirishga, o‘z mehnatidan zavq olishiga, mehnat unumdorligiga erishishiga, oilasi, Vatanni sevishtiga, ijtimoiy hayotga munosabatini yaxshilik tomonga o‘zgartirishiga olib keladi.

Bayramlarni tashkil qilinishining asosiy maqsadi ham ana shunga qaratilgan”¹.

Bir haqiqatni aytib o‘tish joizki, bu bayramlar yildan–yilga mazmunan boyitilib o‘tkazilmoqda. Avvallari ommaviy bayramlarni tashkil etilish jihatidan bir-xillikni kuzatish mumkin, degan qarashlar mavjud edi. Hozirgi kunda bayram tadbirlarimiz tashkil etilish jihatidan ham, ijodiy tomonidan ham mazmunan boyitilgan holda tashkil etilayotganligiga barchamiz guvoh bo‘lib turibmiz.

Umumxalq bayramlarini tashkil etishdan asosiy maqsad – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish, o‘z kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma‘naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo‘lgan hurmatni uyg‘otish va saqlash hisoblanadi. Insonlar bayramlarda shaxs sifatida o‘z insoniy fazilatlarini shakllantira

boshlaydi, yashirin, betakror, individual hususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o‘stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bunday tadbirlarning o‘ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarinig mehnati va bilimlarini o‘ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi.

Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda bayramlarni mohirona tashkil etish, ya‘ni uning dramatik asosini yaratish, sahnalashtirish, ya‘ni rejissurasi va ommaga taqdim etish orqali insonlarga ta‘sir qilish – bayram tashkilotchilarining oldida turgan dolzarb masalalaridandir.

«Eortologiya» – (grekcha «eorto» bayram va «logos» o‘rganish) bayramlar to‘g‘risidagi fandir.² Ushbu sohani o‘rganish bo‘yicha Rossiyada I.Snegiryov, I.Saxarov, F.Buslayev, A.Afanasev, Ye.Anichkov kabi olimlar tarix, filologiya va falsafa, K.A.Mardjanov, D.M.Genkin, I.M.Tumanov va boshqalar mutaxassislik nuqtai nazardan izlanganlar. Sharq mutafakkirlari Firdavsiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Behbudiy, Fitrat kabi olim-ulamolar ham bayramlar va uning tashkil etilishi to‘g‘risida³, bayramlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va roli haqida turli nuqtai nazar bilan qaraganlar va o‘z fikr va mulohazalarini meros qilib qoldirganlar.

Bayramlarga oid manbalarda O‘zbekiston bayramlarini «Xalqaro qutlug‘ kunlar», «Asosiy (tub) umumxalq bayramlari», «Soha, kasb va boshqa qutlug‘ kunlar» kabi turlarga ajratib ko‘rsatilgan. Asosiy (tub) umumxalq bayramlariga: 1 yanvar – Yangi yil, 8 mart – Xotin-qizlar kuni, 21 mart – Navro‘z bayrami, 9 may – Xotira va qadrlash kuni, 1 sentabr – Mustaqillik kuni, 1 oktabr – O‘qituvchi va

¹ Rustamov.V.K. “Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari”.T., 2013.,75b.

² Немиро О. Праздничный город. –Л., 1987. 9b.

³ V.Rustamov. Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari. T., 2013.88b.



murabbiylar kuni, 8 dekabr – Konstitutsiya kuni, diniy bayramlar – Ro‘za hayiti va Qurbon hayitining birinchi kunlari⁴ni sanab o‘tish mumkin.

Yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, O‘zbekiston bayramlarga boy mamlakatlardan hisoblanadi. Madaniy-ma‘rifiy ishlar bilan shug‘ullanuvchi mutassadilar, ommaviy bayramlar rejissyorlari uchun yil davomida har oyda bir yoki ikkita bayramni tashkil etishiga to‘g‘ri keladi. Bu degani, repititsiyalarning hisobga oladigan bo‘lsak, deyarli har kuni bayramlarni tashkil etish ishlari bilan band bo‘ladilar.

Yuqorida ko‘rsatilgan bayramlardan tashqari, mamlakatimizda muhim sanalarni nishonlash bo‘yicha ham turli tadbirlar tashkil etilib, tadbir tashkilotchilariga, ayniqsa, rejissyorlarga ehtiyoj seziladi. Quyida mamlakatimizda o‘tkaziladigan muhim sanalarni sanab o‘tishga harakat qilamiz: 1 yanvar – Yangi yil bayrami, Xalqaro tinchlik kuni, 8 yanvar – Prokuratura xodimlari kuni, 14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni, 19 yanvar – Mahmudxo‘ja Behbudiy tug‘ilgan kun (1875), 9 fevral – Alisher Navoiy tug‘ilgan kun (1441), 14 fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tug‘ilgan kun (1483), 1 mart – O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya tug‘ilgan kun (1915), 2 mart – O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ga a‘zo bo‘lgan kun, 22 mart – Mirzo Ulug‘bek tug‘ilgan kun, 22 mart – Xalqaro obi – hayot kuni. 27 mart – Xalqaro teatr kuni, 1 aprel – Kulgi va hazil kuni, 7 aprel – Jahon salomatlik kuni, 12 aprel – Jahon aviatsiya va kosmonavtikasi kuni, 18 may – Xalqaro muzeylar kuni, 31 may – Xalqaro kashandalikka qarshi kurash kuni, 1 iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni, 31 avgust – O‘zbekistonda qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni (2001), 27 sentabr – Xalqaro sayyohlik kuni, 18 oktabr – Samarqand shahri kuni, 25 oktabr – O‘zbekiston

Respublikasi Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni, 1 dekabr – Jahon SPID (OITS)ga qarshi kurashish kuni, 3 dekabr – Xalqaro nogironlar kuni, 10 dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun va boshqa muhim sanalar shular jumlasidandir. Yuqorida qayd etilgan tadbirlar buyuk O‘zbekiston davlatining bayramlar mamlakati ekanligidan dalolat berib turibdi.

Umumxalq bayramlari degan tushunchaning mazmunida xalq, ommaning faol ishtiroki nazarda tutiladi. Respublika miqiyosida o‘tkazilib kelinayotgan “Navro‘z”, “Mustaqillik”, “Xotira va qadrlash kuni”, turli sport bayramlari, yubiley tantanalari, Xalqaro festivallarning ochilish va yopilish tantanalari va h.k.larni tashkil etishda tadbir tashkilotchisi-rejissyordan juda katta kuch, bilim va mahorat talab etiladi.

Tadbirlarni tashkil etishdagi eng qiyin jarayon uni yagona mavzu chizig‘iga yo‘naltirishdir. Shu mavzuga mos manbalar izlash, sahna, ya‘ni, tadbir o‘tadigan joyni jihozlash, ishtirokchilarni to‘plash, vazifalarni tushuntirish va repetitsiyani boshlashdan oldin ssenariy rejissyorning qo‘lida bo‘lishi shart.

Ssenariyning badiiy jihatdan mukammalligi, uning originalligiga erishish – o‘tkaziladigan bayram tadbirlarining yuqori saviyada o‘tishiga kafolatdir. Rejissyor va ssenaristning izlanuvchanligi tadbir yoki tomoshaning yuqori saviyada o‘tishini ta‘minlaydi.

Respublika miqiyosida o‘tkazilayotgan tadbirlar dramaturgiyasini yaratish va sahnalashtirishda yurtimizning mashhur dramaturglari, yozuvchilari, rejissyorlar va shu soha bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar ishtirok etadilar. Ular yurtimizda bo‘layotgan chuqur o‘zgarishlarni, O‘zbekiston kelajagi buyuk ekanligiga ishonish, Vatanni sevish, o‘z ishiga, Vataniga, oilasiga mehr-oqibatli bo‘lish, mamlakatning rivojlanishida yoshlarning o‘rnini belgilash, qariyalarga hurmat-e‘tiborda bo‘lish

⁴ Shodiyev B.A. Maydon tomoshalari dramaturgiyasi va rejissurasi muammolari. -T., 2007.



kabi xususiyatlarni turli badiiy vositalar orqali namoyon etadilar. Ular sahnalashtirgan bayram va tomoshalari orqali O'zbekiston timsolini ko'klarga ko'tarib, uning ravnaqiga katta hissa qo'shganlar. Ammo, juda ko'p joylarda o'tkaziladigan bayram tomoshalarida bunday emas. Chekka tumanlarda bu ishlarni madaniyat muassasalari xodimlari o'zlari bajaradilar.

Tadbirlar dramaturgiyasini yaratishda quyidagi muammolarga duch kelish mumkin:

1. Badiiy jihatdan mukammal ssenariy yaratish uchun mutaxassislar yetishmasligi;

2. Ssenaristlarning tadbir uchun yetarlicha ma'lumotlardan, manbalardan foydalana olmasliklari;

3. Ssenariy yaratishda xujjatlar va faktlarni badiiylashtirish usullarini bilmasliklari;

4. Joylarda o'tkaziladigan tadbirlarda ssenariy yaratish jarayonlariga jiddiy munosabatda bo'lmasliklari o'tkaziladigan tadbirlarning saviyasini tushurib yuborishga, tadbirning muvaffaqiyatli chiqmasligiga olib keladi.

Juda ko'p holatlarda bayram tomoshalari ssenariy yozilmasdan, improvizatsiyaga asoslangan holda o'tib ketadi. Ba'zida bunday tadbirlar muvaffaqiyatli chiqib qolishlari ham mumkin. Ammo, bu noto'g'ri yondoshuv hisoblanadi. Avvalo ssenariyni to'liq yaratib, shunga mos hatti-hatti harakatlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir⁵.

Umumxalq bayramlari va xalq sayillarini tashkil etish rejissurasida ham o'ziga xos ijodiy va tashkiliy jihatlardan kamchilik va muammolarni kuzatish mumkin. Juda ko'p holatlarda, ayniqsa Respublika miqiyosida o'tkazilayotgan bayramlar nuqtai nazardan oladigan bo'lsak, repititsiyalarni tashkil etishda katta muammolarga duch kelinmoqda. 100 dan ortiq ishtirokchilar uzoq muddat (masalan 1oy)

bitta sahna ko'rinishini tayyorlash uchun tinimsiz mehnat qiladilar. Ammo bu qaysidir bir rahbarga yoqmay qoladi va u dasturdan olib tashlanadi. Undan tashqari, juda ko'p holatlarda hammani repititsiyaga chaqirib qo'yib, ijodiy guruh uzoq vaqt maslahatlashib (albatta ijodiy tortishuv bo'lishi kerak), ishtirokchilarni kutdirib qo'yishlari ham tadbir qatnashchilarini "sovitib qo'yishi" mumkin.

Bunday tadbirlar o'zining "bir marta"gina tashkil etilishi bilan boshqa tadbirlardan farqlanib turadi. Birinchidan, bayram kuniga to'g'ri kelishi (aytaylik, 8-Mart Xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tadbir faqat 8-Mart kuni yoki unga qadar o'tkazilishi kerak) sabab bo'lsa, ikkinchida juda ko'p sonli tadbir ishtirokchilarini yig'ish, to'plash bilan bog'liq muammolar borki, bunda bitta rejissyorning vakolati kamlik qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, bayram tomoshalari insoniyat yaratgan eng yaxshi progressiv xalq an'alarini saqlaydi, rivojlantiradi, targ'ib qiladi. U ommani faqat madaniyat namunalaridan bahramand bo'lishga sharoit yaratibgina qolmay, uning madaniy qiyofasi, xulq-atvori, odobi va axloqining shakllanishiga turtki bo'ladi.

⁵B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent, 2016, 54b.



Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent, 2016, 54b.
- 2.O.Nemiro. Prazdnichniy gorod. –L., 1987. 9b.
- 3.V.Rustamov. Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari. T., 2013.88b.
- 4.B.Shodiyev. Maydon tomoshalari dramaturgiyasi va rejissurasi muammolari.. -T., 2007.